


26. Sonlarni qo'shish (28 + 14)

Yondosh mavzu:
Gadgetlar

Ikki xonali sonlarni
qo'shish.



Sonlarni
shunday
joylashtiringki,
chiziqlar katta
sondan kichik
songa yo'nalsin.



1. Masalaga doir ifoda yozing.

Bolalar "Kim nimaga o'xshaydi" o'yinini o'ynashdi. Sinfda 15 ta "kompyuter", 16 ta "planshet" va 5 ta "mikrofon" bor ekani ma'lum bo'ldi. Sinfda jami necha nafar o'quvchi bor? Nima deb o'ylaysiz, nima uchun bolalar o'z o'rtoqlarini ushbu gadgetlarga o'xshatishgan?



2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:

$$34 + 58 = (30 + 50) + (4 + 8) = 80 + 12 = 92$$



$$\begin{array}{r} 29 + 25 \\ 37 + 24 \\ 48 + 15 \\ 67 + 25 \end{array}$$



3. Masalani tenglama tuzib yeching.

Qutida 50 ta elektr qulqchin bor. Ulardan 35 tasi ko'k rangda, qolgani qizil rangda. Qutida nechta qizil qulqchin bor?



4. Hisoblang. Qonuniyatni toping va zanjirni davom ettiring.

$19 + 19$


$28 + 28$

$37 + 37$

26. Sonlarni qo'shish (28 + 14)




5. Chizma yordamida masala o'ylab toping va uni yeching.



6. Qonuniyatni toping va zanjirning chap va o'ng tomoniga ikkitadan son qo'shing.



7. Agar uchburchakning perimetri 12 detsimetrga teng bo'lsa, uning tomonlarini toping.



8. Do'kon peshtaxtasida birinchi tokchada 25 ta telefon, ikkinchi tokchada 18 ta telefon turibdi. Kechgacha ularning 12 tasi sotildi. Peshtaxtada nechta telefon qoldi?



9. Jadval bo'yicha misollar tuzing va ularni yeching.

Qo'shiluvchi	46	29	18	48	64	58	26
Qo'shiluvchi	17	34	47	26	18	27	35
Yig'indi							